## Farg'ona viloyatining
## TAShQI SAVDO AYLANMASI

(*2019 yil yanvar*)

2019 yil yanvar oyi yakuniga ko'ra, viloyatimizda tashqi savdo aylanmasi 105,8 mln. AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 14,0 %ga o'sdi. Shu jumladan, eksport hajmi 30,0 mln. AQSh dollarga (4,5 %ga kamaygan) va import hajmi 75,8 mln. AQSh dollariga (o'sish sur'ati 23,0 %ga) yetdi. Tashqi savdo saldosi minus 45,8 mln. AQSh dollarini tashkil qildi.

**Farg'ona viloyati tashqi savdo aylanmasi**
(*mln. AQSh dollari*)




So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilinishi, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi. Jumladan, xom-ashyo eksportidan, qo'shilgan qiymati yuqori hamda sarmoya talab tovarlar eksportiga yo'naltirilgan tashqi savdo amalga oshirilmoqda.

## 2018-2019 yillarda tovar va xizmatlarning eksport-import ko‘rsatkichlari dinamikasi
(*mln. AQSh dollari*)




2019 yil yanvar oyida viloyat tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar ketma-ketligi joriy yilning yanvar oyida ham o’tgan yilning mos davriga nisbatan deyarli o‘zgarishsiz qolmoqda.

## Viloyat tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar

(*mln. AQSh dollari*)

| Davlat nomi | Tashqi savdo aylanmasi | Eksport | Import | Tashqi savdo aylanmasidagi ulushi, % |
|---|---|---|---|---|
| **Xitoy** | 24,5 | 9,4 | 15,0 | 23,1 |
| **Qozog‘iston** | 24,4 | 1,0 | 23,4 | 23,1 |
| **Rossiya** | 23,1 | 6,1 | 17,0 | 21,8 |
| **Turkiya** | 6,0 | 4,2 | 1,8 | 6,2 |
| **Latviya** | 2,7 | 0,1 | 2,6 | 2,5 |
| **Koreya Respublikasi** | 2,6 | 0,3 | 2,3 | 2,5 |
| **Qirg‘iziston** | 2,5 | 1,4 | 1,1 | 2,5 |
| **Polsha** | 2,2 | 1,5 | 0,7 | 2,2 |
| **Tojikiston** | 2,0 | 0,8 | 1,2 | 2,0 |

(*mln. AQSh dollari*)

| Davlat nomi | Tashqi savdo aylanmasi | Eksport | Import | Tashqi savdo aylanmasidagi ulushi, % |
|---|---|---|---|---|
| **Bangladesh** | 1,9 | 1,9 | - | 1,9 |
| **Litva** | 1,7 | 0,07 | 1,6 | 0,9 |
| **Vietnam** | 0,9 | 0,9 | - | 0,9 |
| **Ukraina** | 0,6 | 0,6 | - | 0,6 |
| **Belarus** | 0,5 | 0,1 | 0,5 | 0,4 |
| **Misr** | 0,4 | 0,4 | - | 0,6 |
| **Eron** | 0,3 | 0,06 | 0,3 | 0,3 |
| **Italiya** | 0,3 | 0,08 | 0,2 | 0,3 |
| **Chexiya Germaniya** | 0,1 | 0,05 | 0,1 | 0,1 |
| **Gretciya** | 0,1 | 0,1 | 0,05 | 0,1 |

Viloyatimizda tashqi savdoni qo‘llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo‘yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2019 yil yanvar oyida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 52,4 %ni tashkil yetdi hamda tashqi savdo aylanmasi o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 1,1 martaga oshdi. Boshqa xorijiy davlatlarning viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2019 yilning yanvar oyida 1,7 % pasaygan bo‘lsa, joriy yilning ushbu davrida esa tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 47,5 %ga yetdi.

## EKSPORT

2019 yil yanvar oyida eksport hajmi 30,0 mln. AQSh dollarga (4,5 % ga kamaygan) teng bo‘ldi. Eksport tarkibida tovarlar 97,8 % ulushga ega, bular asosan oziq-ovqat mahsulotlari (32,9 %), energiya manbaalari va neft mahsulotlari (3,3 %), shuningdek, kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (0,6 %) guruhlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

## Tovar va xizmatlar eksporti tarkibi
*(mln.AQSh dollari)*

**2018 Yil yanvar**




- paxta tolasi
- oziq-ovqat mahsulotlari
- kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar
- Energiya manbalari va neft mahsulotlari
- qora va rangli metallar
- Xizmatlar
- Boshqalar

**2019 Yil yanvar**




- Paxta tolasi
- Oziq-ovqat mahsulotlari
- Kimyo mahsulotlari va buyumlari
- Energiya manbaalari va neft mahsulotlari
- Qora va rangli metallar
- Xizmatlar
- Boshqalar

## Eksport tarkibi

| | Jami | | | MDH davlatlari | | | Boshqa davlatlar | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | mln. AQSh doll. | o'tgan yilga nisbatan, % | umumiy hajmga nisbatan, % | mln. AQSh doll. | o'tgan yilga nisbatan, % | umumiy hajmga nisbatan, % | mln. AQSh doll. | o'tgan yilga nisbatan, % | umumiy hajmga nisbatan, % |
| **Eksport** | **30,0** | **95,5** | **100** | **10,3** | **122,2** | **100** | **19,7** | **85,7** | **100** |
| **Paxta tolasi** | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 00 | 00 | 00 | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| **Oziq-ovqat mahsulotlari** | 6,3 | 210,5 | 21,1 | 2,9 | 334,2 | 28,7 | 3,3 | 159,2 | 17,2 |
| **Kimyo mahsulotlari va buyumlari** | 0,1 | 71,2 | 0,6 | 0,1 | 168,9 | 1,8 | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| **Energiya manbaalari va neft mahsulotlari** | 0,9 | 348,3 | 3,3 | 0,6 | 2,0 m | 5,7 | 0,4 | 100 | 2,1 |
| **Qora va rangli metallar** | 0,006 | 100,0 | 0,1 | 0,006 | 100,0 | 0,1 | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| **Mashina va asbob - uskunalar** | 0,06 | 158,4 | 0,2 | 0,03 | 3,7 m | 0,3 | 0,03 | 5,6 m | 0,11 |
| **Xizmatlar** | 0,7 | 187,4 | 2,2 | 0,6 | 1,9 m | 5,5 | 0,1 | 1,6 m | 0,6 |
| **Boshqalar** | 21,7 | 79,1 | 72,5 | 5,9 | 87,2 | 58,0 | 15,8 | 76,4 | 80,0 |

**Tovar va xizmatlar eksportining o'sish sur'atlari**
*(o'tgan yilga nisbatan,%)*




Shuningdek, tovar va xizmatlar eksporti o'sish sur'atlarining tahliliga asosan, 2019 yilning yanvar oyida eksport qilingan tovar va xizmatlar o'tgan yilgning yanvar oyiga nisbatan 95,5 %ga oshgan.

Xizmatlar eksporti hajmi 0,7 mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 2,2 % ini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,8 martaga ko'payganligi kuzatildi.

Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari, turizm xizmatlari, telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari hamda moliyaviy xizmatlar hissasiga to'g'ri keladi.

## 2018-2019 yillarda tovarlar va xizmatlar eksporti
*(oylar kesimida, mln. AQSh dollari)*




## Viloyat eksportida asosiy hamkor davlatlarning ulushi
*(yanvar)*



Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning asosiy qismi Xitoy Xalq Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu esa umumiy eksport hajmining 51,6 % ini tashkil qiladi. Xitoy Xalq Respublikasi va Rossiya Federatsiyasiga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga nazar tashlasak, asosan energiya manbaalari va neft mahsulotlari, kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar hamda oziq-ovqat mahsulotlari guruhlaridan iborat ekanligini ko'rishimiz mumkin.

**Farg'ona viloyatining asosiy hamkor davlatlarga amalga oshirgan eksport hajmi**

| Davlat nomi | Mln. AQSh doll. | | Ulushi, % | | O'rni | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2018 y. | 2019 y. | 2018 y. | 2019 y. | 2018 y. | 2019 y. |
| Rossiya | 6,5 | 6,1 | 20,8 | 20,4 | 1 | 2 |
| Xitoy | 6,4 | 9,4 | 20,4 | 31,3 | 2 | 1 |
| Qozog'iston | 0,6 | 1,0 | 2,0 | 3,6 | 3 | 7 |
| Kirg'iziston | 0,5 | 1,4 | 1,9 | 4,9 | 9 | 6 |
| Turkiya | 5,7 | 4,2 | 18,3 | 14,3 | 3 | 3 |
| Bangladesh | 2,4 | 1,9 | 7,9 | 6,6 | 4 | 4 |
| Koreya Respublikasi | 2,3 | 0,3 | 7,5 | 1,2 | 5 | 12 |
| Polsha | 1,7 | 1,5 | 5,2 | 5,2 | 6 | 5 |
| Tadjikistan | 0,1 | 0,7 | 0,6 | 2,6 | 15 | 8 |
| Vietnam | 0,02 | 0,9 | 0,0 | 3,2 | 34 | 8 |
| Ukraina | 0,2 | 0,6 | 0,8 | 2,1 | 13 | 10 |
| Belarus | 0,1 | 0,1 | 0,4 | 0,6 | 18 | 13 |
| Latviya | 0,0 | 0,1 | 0,0 | 0,5 | - | 14 |
| Litva | 0,1 | 0,06 | 0,4 | 0,2 | 19 | 16 |
| Gretciya | 0,0 | 0,1 | 0,0 | 0,4 | - | 15 |
| Italiya | 0,0 | 0,07 | 0,3 | 0,2 | - | 16 |
| Eron | 0,1 | 0,06 | 0,4 | 0,2 | 21 | 18 |
| Misr | 0,0 | 0,4 | 0,0 | 0,1 | - | 11 |
| Turkmenistan | 0,0 | 0,03 | 0,0 | 0,1 | - | 20 |
| Chexiya Respublikasi | 0,1 | 0,05 | 0,4 | 0,2 | 21 | 1 |

## Farg‘ona viloyatining ayrim davlatlar bilan eksport tarkibi
(*yanvar)*

*ming. AQSh doll.)*

| | Rossiya Respublikasi | | Qozoqiston Respublikasi | |
|---|---|---|---|---|
| | 2018 y. | 2019 y. | 2018 y. | 2019 y. |
| **Jami eksport** | **6546,5** | **6124,6** | **637,5** | **1076,5** |
| Paxta tolasi | - | - | - | - |
| Oziq-ovqat mahsulotlari | 378,6 | 322,5 | 224,9 | 827,5 |
| Kimyoviy mahsulotlar va undan tayyorlangan buyumlar | - | 16,2 | 40,7 | - |
| Energiya manbalari va neft mahsulotlari | - | 254,1 | 100,4 | 65,3 |
| Qora va rangli metallar | - | | - | 6,5 |
| Mashina va uskunalar | 8,1 | 17,9 | - | 3,0 |
| Xizmatlar | 292,3 | 543,0 | - | 4,1 |
| Boshqalar | 5867,3 | 4970,6 | 271,3 | 170,1 |

## Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti

2019 yilning yanvar oyida jami 7,6 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot mahsulotlari 2,8 mln. AQSh dollariga eksport qilindi (o‘sish sur’ati 100,4 %). Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 2019 yilning yanvar oyida 5,6 ming tonnadan ko‘proq sabzavotlar 1,0 mln. AQSh dollariga yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 1,7 ming tonnaga ko‘p miqdorda eksport qilingan.

Shuningdek, 1,2 ming tonna meva va rezavorlar 1,0 mln. AQSh dollariga eksport qilingan bo‘lib, eksport hajmi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 3,2 ming tonnaga ko‘pdir.

## Meva-sabzavot mahsulotlarining tarkibi




Shuni aytib o‘tish joizki, mamlakatimizda eksport salohiyatini kengaytirish, yangi bozorlarni o‘zlashtirish natijasida meva-sabzavot mahsulotlari, uzum, poliz, dukkakli ekinlar, shuningdek, quritilgan sabzavot va mevalarni eksport qilish hajmi oshib bormoqda. Jumladan, 2019 yilning yanvar oyida meva-rezavorlar hamda sabzavotlar eksport hajmi 2,1 mln.AQSh dollariga yetdi (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 3,7 martaga ko‘paygan.).

## Viloyatimizda yetishtirilgan meva va sabzavot mahsulotlarining asosiy bozorlari eksport geografiyasi

| Davlat nomi | 2018 yil yanvar | | | 2019 yil yanvar | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | Ming. tonna | Ming. AQSh,doll | Ulushi, % | Ming. tonna | Ming. AQSh,doll | Ulushi, % |
| Qozoqiston | 394,8 | 209,0 | 7,2 | 3176,2 | 815,8 | 28,2 |
| Rossiya | 371,3 | 342,0 | 11,8 | 301,5 | 256,6 | 8,8 |
| Qirg‘iziston | 665,3 | 210,8 | 7,3 | 1625,8 | 1111,3 | 38,4 |
| Xitoy | 76,7 | 64,9 | 2,3 | 25,5 | 24,4 | 0,8 |
| Turkiya | 116,0 | 78,7 | 2,7 | 66,0 | 46,5 | 1,6 |
| Ukraina | 40,0 | 43,4 | 1,5 | 1820,2 | 389,5 | 13,4 |

### IMPORT

Joriy yilning yanvar oyida import hajmi 75,8 mln. AQSh dollariga (o‘sish sur’ati 123,5 % ) teng bo‘ldi. Import tarkibida eng katta ulush mashina va asbob uskunalar (25,9%), energiya manbalari va neft maxsulotlari (21,7), oziq-ovqat mahsulotlari (20,8 %), kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (12,1 %) hamda boshqalar hisobiga to‘g‘ri keldi(15,6%).

## Tovar va xizmatlar importi tarkibi
*(mln.AQSh dollari)*







- Oziq-ovqat mahsulotlari
- Kimyo mahsulotlari va buyumlari
- Energiya manbaalari va neft mahsulotlari
- Qora va rangli metallar
- Mashina va asbob-uskunalar
- Xizmatlar
- Boshqalar

## Import tarkibi

| | Jami | | | MDH davlatlari | | | Boshqa davlatlar | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | mln. AQSh doll. | o'tgan yilga nisbatan, % | umumiy hajmga nisbatan, % | mln. AQSh doll. | o'tgan yilga nisbatan, % | umumiy hajmga nisbatan, % | mln. AQSh doll. | o'tgan yilga nisbatan, % | umumiy hajmga nisbatan, % |
| Import | **75,8** | **123,5** | **100,0** | **45,2** | **116,6** | **100,0** | **30,6** | **135,3** | **100,0** |
| Oziq-ovqat mahsulotlari | 15,7 | 454,0 | 20,8 | 14,8 | 848,4 | 32,8 | 0,9 | 56,0 | 3,2 |

| | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Kimyo mahsulotlari va buyumlari | 9,1 | 191,8 | 12,1 | 2,8 | 172,6 | 6,4 | 6,3 | 202,0 | 20,6 |
| Energiya manbaalari va neft mahsulotlari | 16,4 | 55,3 | 21,7 | 16,4 | 55,2 | 36,3 | 0,03 | 219,6 | 0,1 |
| Qora va rangli metallar | 2,7 | 449,6 | 3,6 | 1,4 | 201,4 | 3,1 | 1,3 | 64,5 | 4,3 |
| Mashina va asbob-uskunalar | 19,6 | 161,2 | 25,9 | 0,1 | 187,4 | 1,8 | 18,8 | 160,3 | 61,4 |
| Xizmatlar | 0,1 | 75,1 | 0,2 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,1 | 77,5 | 0,6 |
| Boshqalar | 9,1 | 191,8 | 12,1 | 2,8 | 172,6 | 6,4 | 6,3 | 202,0 | 20,6 |

Import qilingan tovar va xizmatlarning oylar kesimidagi o‘sish sur’atlari bo‘yicha quyida keltirilgan ma’lumotlardan shuni ko‘rishimiz mumkinki, joriy yilning yanvar oyida davomida eng yuqori o‘sish sur’atlari kuzatilgan.

**Tovarlar va xizmatlar importining o‘sish sur’atlari dinamikasi**
(*o‘tgan yilga nisbatan, %*)



Shuningdek, tovar va xizmatlar importi o‘sish sur’atlarining tahliliga asosan, 2019 yilning dekabr oyida import qilingan tovar va xizmatlar noyabr oyiga nisbatan 123,5 %ga kamaygan.

**Farg‘ona viloyatiga asosiy hamkor davlatlardan amalga oshirilgan import hajmi**

| Davlat nomi | Mln. AQSh dollari. | | Ulushi, % | | O‘rni | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2018 y. | 2019 y. | 2018 y. | 2019 y. | 2018 y. | 2019 y. |
| Rossiya | 34,5 | 17,0 | 56,2 | 22,4 | 1 | 2 |
| Xitoy | 16,5 | 15,0 | 27,0 | 19,9 | 2 | 3 |
| Qozog’iston | 2,1 | 23,3 | 3,4 | 30,8 | 3 | 1 |
| Latviya | 0,6 | 2,5 | 1,1 | 3,4 | 8 | 4 |
| Koreya | 1,5 | 2,2 | 2,6 | 3,0 | 5 | 5 |
| Germaniya | 0,9 | 2,0 | 2,6 | 3,0 | 7 | 6 |
| Turtsiya | 1,5 | 1,7 | 2,4 | 2,3 | 6 | 7 |
| Litva | 0,1 | 1,6 | 0,3 | 2,2 | 11 | 8 |
| Tadjikistan | 0,4 | 1,2 | 0,8 | 1,7 | 9 | 9 |
| Ozarbayjon | - | 1,1 | - | 1,5 | - | 10 |
| Qirgizsiton | - | 1,1 | - | 1,5 | - | 11 |
| Tayvan | 0,005 | 0,9 | 0,01 | 1,3 | 33 | 12 |
| Niderlandiya | 0,05 | 0,9 | 0,1 | 1,2 | 19 | 13 |
| Polsha | 0,05 | 0,7 | 0,1 | 0,9 | 18 | 14 |
| Hindiston | 0,8 | 0,5 | 0,1 | 0,7 | 14 | 15 |
| Ukraina | | 0,5 | | 0,7 | | 16 |
| Belarus | 1,9 | 5,0 | 0,4 | 0,6 | 17 | 21 |
| Italiya | 10,0 | 6,0 | 2,3 | 0,7 | 6 | 36 |
| Yaponiya | 1,3 | 6,0 | 0,3 | 0,7 | 23 | 37 |
| Chexiya | 1,4 | 4.1 | 0,3 | 0,5 | 20 | 20 |

## Xizmatlar importi tarkibi, (*%*)

**2019 yil yanvar**

Xizmatlar importi hajmi 0,185 mln. AQSh dollarini yoki jami import hajmining 0,2 %ini tashkil etdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 75,1 %ga o'sdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi turizm xizmatlari, transport xizmatlari, qurilish xizmatlari va telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlaridan iborat bo'ldi.

## 2018-2019 yillarda tovarlar va xizmatlar importi dinamikasi
(*oyda, mln. AQSh dollari*)



Shu bilan birga ta'kidlab o'tish kerakki, 2019 yilning o'tgan davri mobaynida viloyatga  import qilinayotgan tovar va xizmatlar yanvar oyida o'tgan yilning mos davriga nisbatan 14,4 mln. AQSh dollarga ko'p import qilindi va 75,8 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

**Viloyat importida asosiy hamkor davlatlarning ulushi**
*(yanvar)*




2019 yilning yanvar oyida viloyatimizga 37 dan ortiq xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan. Shulardan 5 ta eng yirik bo'lgan Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Koreya Respublikasi, Qozog'iston va Latvia hamkor davlatlaridan jami import hajmi 60,3 mln. AQSh dollariga teng.

Bu esa umumiy import hajmining 79,5  %ini tashkil qiladi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi**
**Tel.:71-230-87-18**